

JAMIYATDA AYOLLAR: GENDER TENGLIGI VA FEMINIZM MOHIYATI TAHLILI

Raxmonova Dildora Mirzakarimovna

TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali katta o'qituvchisi

Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li

TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali 3-bosqich talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Gender tengligi, feminizm, teng huquqlilik, ayollar, ziyolilar.

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatda ayollarning o'rnini belgilash, gender tengligi va feminizm tushunchalari o'rtasidagi farq haqida batafsil tushuntirish berilgan. Bugungi kunda ayollarning jamiyatdagi o'rnini belgilash, ularning huquqlarini ta'minlash, ta'lim olishi natijasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mumkinligi haqida mulohaza yuritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Jamiyatda ayollarning nufuzini oshirish masalasi hamisha taraqqiyparvar ziyolilar tomonidan kun tartibiga qo'yilib kelingan. XX asr boshida Mahmudxo'ja Behbudiy "Taraqqiy etgan millatlar onalari o'qutur ekan, biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgantmoqimiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur" deya asriy muammoga shu tarzda yechim taklif qilgan edi.

Mamlakat taraqqiy etishida unda yashovchi insonlarning ilmiy va huquqiy ong salohiyati birinchi o'rinda turadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi har bir munosabatning mohiyatida ilm yotadi, u xoh teologiyada bo'lsin, xoh materializmda bo'lsin, buning farqi yo'q. Jamiyatda ilm olish qanchalar qadrlil bo'lsa, shu jamiyatda albatta yuksalish bo'ladi. Jamiyatdagi ilmiy, huquqiy salohiyatni oshirish uchun nafaqat erkaklarni, balki ayollarni ham tengdan, hattoki ayollarni ziyodroq o'qitishimiz lozim. Mamlakatda erkak va ayollarning ziyolilik darajasi teng bo'lsa, bu ziyoli oilalarning ko'payishiga, shu o'rinda shu oilada tug'ilajak farzandlarning yetuk bo'lishiga zamin yaratib beradi. Tarixdan ma'lumki, buyuk allomalarning bu darajaga yetishishida onalarining o'rni otasinikidek bo'lsa bo'lganki, biroq kam emas.

Ayollarni o'qitish, ularning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi masalasi ko'proq jamiyatning ijtimoiy hayotiga borib taqaladi. Aynan shu masalaning yechimi voyaga yetmaganlar, ayollar va oiladagi jinoyatchilik dinamikasini passivlashuviga xizmat qiladi. Xususan, bugungi kunda jamiyatda xotin-qizlar va erkaklarning huquqlarini tenglashtirishda, gender tengligi va feminizm kabi tushunchalarga duch kelamiz. Xo'sh, gender tengligi va feminizm o'zi nima, uning huquqiy asosi bormi degan savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Gender tengligi jamiyatda jinlar tafovutini teng huquq va imkoniyatlar bilan ta'minlash, umuman olganda, ularni har jabhada tenglashtirishga qaratilgan ideologiyalarning birlashuvi natijasi o'laroq, xatti-harakatlarda ifodalanadigan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy munosabatdir. Jamiyatda o'rnatilayotgan

gender tengligi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy imkoniyatlarga insonlarning jinsidan qat'iy nazar teng imkoniyat berilishini mujassamlashtirishi lozim. Ularning shunchaki teng bo'lishi muhim emas, balki jinsi tufayli biror haqidan mahrum etilmasligiga e'tibor qaratish lozim. Gender tengligiga erishishimiz uchun davlat boshqaruvi, umuman olganda jamiyatda ayollarni mehnat qilishi bilan erishib bo'lmaydi. Bu munosabat uy bekasi, ishsiz bo'lgan ayollarga nisbatan diskriminatsiya tarzida namoyon bo'lishi ham mumkin. Gender tengligi ta'minlash maqsadimiz bo'lsa, biz ayollarni mehnat faoliyatidagi o'rnini oshirishga emas, balki ularni jamiyatda ilmiy va hurmat-ehtiroimga loyiqqligini ko'rsatishimiz zarur. Bu esa o'z navbatida barcha ayollarga tatbiq qilinishi lozim.

Feminizm lotincha "femina" ya'ni "ayol" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida ayollarning huquq va imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy munosabat bo'lib, xuddiki jamiyatda erkaklarning huquqlari ustundek ko'riladigan hamda erkaklardan ustun bo'lishga qaratilgan ideologiyalar jamlanmasidir. Ko'pgina adabiyotlarda, internet nashrlarida gender tengligi va feminizm masalalari bir xil ideologiya sifatida ta'riflanadi. Ammo bizning nazarimizda bu biroz munozarali. Sababi gender tengligi o'zining mohiyatida jinsiy tenglikni ta'minlashni anglatadi, feminizm jamiyatda ayollarning huquqlari ustunligini ta'minlashni anglatadi. Keling, ushbu ijtimoiy, siyosiy munosabatlarni qonun-hujjatlarida ifodalanishiga e'tiborimizni qaratsak, dastavval xalqaro huquqiy normalarga yuzlanamiz:

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida: "Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak", deya ta'kidlab o'tilgan. Deklaratsiyaning 2-moddasida: "Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'iy nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarur. Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'iy nazar biror bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak". Bu norma yana bir xalqaro hujjatda, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 26-moddasiga binoan, "Barcha kishilar qonun oldida tengdirlar va hech bir kamsitishsiz qonun orqali teng himoya qilinish huquqiga egadirlar. Bu borada har qanday turdagi kamsitish qonun bilan taqiqlab qo'yilishi va qonun barcha shaxslarga hech bir kamsitishsiz, jumladan irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi (nasli-nasabi)dan va boshqa holatidan qat'iy nazar kamsitishga qarshi teng va samarali muhofazani kafolatlashi kerak" deyiladi. Bu normalardan kelib chiqib, insonlarning jinsi, irqi, millati, tili, diniy qarashlaridan qat'iy nazar tengligini anglatadi, ayni jinsiy tenglik bizga gender tengligi tushunchasini beradi.

Gender tengligi bo'yicha norma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida to'g'ridan-to'g'ri belgilangan bo'lib, "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar", deya aniq ravshan belgilab o'tilgan. Ayni shu konstitutsiyaviy normani ijtimoiy hayotga tatbiq qilish uchun O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonunning 3-moddasida birinchi marta mamlakat normativ-huquqiy hujjatlarida gender tushunchasiga ta'rif berib o'tildi. Unga ko'ra, "gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati"dir. Qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasi gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining vakolatlarida xotin-qizlar va ayollarni bilim olishini erkaklarniki bilan tenglashtirishga oid huquqiy normalar mavjuddir, ular, "xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha o'qitishni tashkil etadi... jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishni amalga oshiradi". Ko'rib turganimizdek, barcha normativ-huquqiy hujjatlar, harakatlar jamiyatda ayollar va erkaklarni teng huquqli bo'lishini, xususan ayollarni ziyoli bo'lishini

ta'minlashdan iboratdir. Bu harakatlar aslo feminizmni targ'ib qilmaydi, biz buni farqini tushunib olishimiz kerak. Aytishingiz mumkin, mana ayollarga erkaklarga qaraganda ko'proq imtiyoz berilayaptiku, bu esa feminizmning belgisidir. Albatta qaysidur prizmadan qaraganda, to'g'ri bugungi kundagi mamlakatimizda ayollarga berilayotgan imtiyozlar feminizmning belgisi, biroq jamiyatdagi erkaklar va ayollarning huquqlarini tenglashtirilishiga qaratilishi va shu huquqlar tenglashishi oqibatida mazkur imtiyozli normalar bekor bo'lsa, bu gender tengligi ta'minlash belgisidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda ayollarning o'z o'rniga ega bo'lishi, ziyoli bo'lishi taraqqiyotga yetaklovchi yo'ldir. Diniy qoidalarimiz, milliy an'analarimizda ham bu haqda "Ilm olish har bir erkagu-ayol musulmonga farzdir", "Beshikdan qabrgacha ilm izlang", "Er yigitni o'qitsang o'zingga foyda, ayolni o'qitsang ummatga foyda" deb ilm sari intilishga buyuriladi. Shu o'rinda jadidchilik davri namoyondasi Mahmudxo'ja Behbudiy "Turkiston musulmonlarining jaholati va tarbiyasizligini aytib ado qilib bo'lmaydur. Alhamdulillah, Turkiston musulmalari iffat va erlarig'a tobelik bobinda nazirasizdurlar va, ammo, biz erlar alarg'a jabr va zulm etib, xodima, balki HAYVON darajasida induribmiz, o'qumoqni shore' alarg'a ham farz qilibdur" deydi. Ziyolilar sonining ortishi orqali jamiyatimiz rivojlanishi, ilm-fan taraqqiyoti, voyaga yetmaganlar, ayollar hamda oiladagi jinoyatchilikning kamayishi hamda mamlakatimiz rivojlanishiga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Caroline Criado Perez. *Invisible Women: Exposing Data Bias in a World Designed for Men.* — M., 2020. — 496 p; Кейтлин Моран. *Быть женщиной: Откровения отъявленной феминистки = How to be a Woman.* — М.: Альпина нон-фикшн, 2014. — 298 с.
2. Rakhmanova D. YURIDIK NUTQNING TARKIBIY QISMLARI //Журнал иностранных языков и лингвистики. — 2021. — Т. 2. — №. 3.
3. Mirzakarimovna R. D. ISSUES OF RENEWAL OF POETIC FORM AND CREATIVE STYLE IN THE WORK OF JADIDIST TAVALLO //E Conference Zone. — 2022. — С. 202-203.
4. Mirzakarimovna R. D. Literary-aesthetic thinking-a factor of renewal of poetic image in tavallo's work //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. — 2022. — Т. 12. — №. 5. — С. 195-199.
5. <https://womo.ua/gender-dictionary-6> // <https://www.un.org/ru/global-issues/gender-equality>.
6. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
7. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
8. <https://lex.uz/docs/-2640479#-5583198>
9. <https://lex.uz/docs/-20596>
10. <https://lex.uz/docs/-4494849>
11. <https://lex.uz/docs/-4494849>